



NUTQIY AKTLARNING PRAGMATIK IMKONIYATI: YASHIRIN VA OSHKORA MA’NO

Yodgorov Jaloliddin Jamolidinovich,
IIV Akademiyasi o‘qituvchisi, PhD
yodgorov202@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243808>

Annotatsiya: Maqolada antropotsentrik tilshunoslikning pragmalingvistika yo‘nalishida nutqiy aktlarning semantik va pragmatik til xususiyatlari, nutqdagi oshkora va yashirin ma‘nolar, shuningdek, so‘zlovchi nutqidagi kommunikativ niyatning lingvistik shakllanish omillari haqida nazariy qarashlar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, pragmatik maqsad, kommunikativ faoliyat, fonopragmatik, leksopragmatik, pragmasintaktik va pragmasemantik jihat, emotsional-ekspressiv ma‘no, ko‘chma ma‘no, konnotativ ma‘no, ifoda semasi, okkozional ma‘no, implitsit [noverbal] sema.

Kishilik jamiyati rivojlanib borar ekan kommunikativ faoliyat natijasida vujudga kelgan axborotning semantik va pragmatik ma‘nolarini tahlil etish borasida uzoq taraqqiyot yo‘li bosib o‘tildi. Antropotsentrik tilshunoslikning pragmalingvistika yo‘nalishida matnning fonopragmatik, leksopragmatik, pragmasintaktik va pragmasemantik jihatlarini aniqlash bilan bog‘liq qarashlar vujudga kelmoqda. Shuningdek, “pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog‘idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni o‘rganadi“ [1:5]. Zero, muloqot jarayonining turli aktlaridagi konseptuallashtirish bilan bog‘liq masalalar tilshunoslikning turli rakurslaridan tahlil etilmoqda. Xususan, ijodkor muloqot [kommunikativ] sathning bir tomoni hisoblansa, uning harakatlari natijasi o‘laroq yaratilgan badiiy matnni idrok etuvchi o‘quvchi bu sathning ikkinchi tomonidir. Ikkinchi tomonning mavjud matnning donotativ ma‘nosi bilan birga vujudga keluvchi emotsional-ekspressiv ma‘no, ko‘chma ma‘no, konnotativ ma‘no, ifoda semasi, okkozional ma‘no va shu kabi semantik “soya”lar yoki ulardan birining doimiy ravishda namoyon bo‘lishi bilan birga qabullashida o‘ziga xoslik hamda umumiyliklar mavjud.

Matn yaratuvchisi muloqot jarayonida o‘zining nutqiy niyatini maksimal amalga oshirishda kommunikativ jarayonning barcha nutqiy aktlarini konseptuallashtira olmasligi, ya‘ni nutqiy aktning barcha ta’sir mexanizmlarini qo‘llay olmasligi mumkin: fonetik-fonologik yoki paralingvistik jihatlar kabi. Bunda yuqori kommunikativ samaraning vujudga kelishida ikki tomon [ijodkor va o‘quvchi]ning bir-biridagi nutqiy strategiyalarida individual yondashuvning to‘g‘ri tanlanganligi ahamiyatli hisoblanadi. So‘zlovchi niyati aks etgan propozitsiyani ifodalashdagi



individuallik va uning matn yaratishdagi mahorati yaratilgan matnning obyektiv borliq voqeligini o‘zida lisoniy jamlay olishi bilan mohiyatan mukammal hisoblanadi. Masalan: ... *U esa uyimizda faqat enam bilan gaplashadi. Dadam va ayamlar bilan “kakligi sayramasmish”*. O‘zi shunday deydi [Nurali Qobil, “Yangi qor tushgan kun”]. Matndagi pragmatik ma’noning shakllanishida aynan bir konseptning “ma’suliyati” yuqori bo‘lmay, shu semantik va pragmatik ma’noning vujudga kelishida konseptual hamda kontekstual jihatdan korporativ aloqaning ahamiyati ustuvor hisoblanadi.

Yuqoridagi ifodada *faqat enam bilan gaplashadi* birikmasi natijasida salbiy sema [nutqning aksiologik, ya’ni baholash akti] shakllanganligi so‘zlovchining *enasini yaxshi ko‘rishi, unga kuchli ishonishi, boshqalarga ishonmasligi, uzoq muddatdan buyon enasi bilan ruhan yaqinligi* kabi mazmuniy-pragmatik jihatlar matndagi nutqiy aktning tashkillanishidagi maqsadning implitsit [noverbal] tomonlarini ham qamrab olgan. Barcha “yashirin” pragmatik semalarni darajalansa, *unga* [enasiga] *kuchli ishonish* ma’nosi asosiy semalarni o‘z atrofida mazmunan birlashtiradi. Bunda u, o‘z navbatida, proporsional ravishda ma’nodosh sememalar bilan qarama-qarshi yoki parallel muvozanatda turadi: *enasini yaxshi ko‘rishi* \approx *unga kuchli ishonishi* \approx *uzoq muddatdan buyon enasi bilan ruhan yaqinligi* \leftrightarrow *boshqalarga ishonmasligi* kabi. Lekin shuni alohida ta’kidlash zarurki, so‘zlovchining nutqiy vaziyatning boshqa ishtirokchilariga nisbatan salbiy implitsitlari vujudga kelmaydi, ya’ni o‘quvchiga personajlarning ijtimoiy va ma’naviy tomonlarini baholash bilan bog‘liq vazifa yuklanmaydi. Shuningdek, “muallif yoki so‘zlovchi leksemani adresatga [tinglovchi yoki kitobxonga] ta’sir qilish uchun qo‘shimcha, ko‘pincha nostandart [noodatiy] ma’noda qo‘llab, ko‘zda tutilgan maqsadga erishuvni nazarda tutadi. Bu jarayon so‘zning semantik ma’nosi imkoniyatlaridan pragmatik maqsadda foydalanish tufayli yuzaga keladi” [4:47]. *Dadam va ayamlar bilan “kakligi sayramasmish”* kontekstdagi ajratilgan metaforik axborotning noodatiy tomoni shundaki, oldingi nutqiy aktning, donotativ ma’noning kuchaytirishga va implitsit [noverbal] semalarning yanada reallashishiga hamda pragmatik “ma’no to‘lqini”ning iyerarxik tarzda darajalanishini ko‘rsatadi. Zero, “gaplarning ketma-ket joylashuvi va mantiqiy bog‘lanishi asosida biri ikkinchisi uchun xizmat qiluvchi nutqiy aktlar yuzaga chiqadi. Matnda bayon qilingan axborotning diktal va modal ko‘rinishlari nutq ishtirokchilari tomonidan o‘zaro pragsemantik taqsimot qilinib, ularning o‘zaro munosabati nutqiy aktlar bilan aniqlanadi” [2:182].

Bizga ma’lumki, “muloqot jarayonida so‘zlashuvchilar lisoniy va nolisoniy birliklardan birdek foydalanadilar, ular orqali ifodalangan axborotlar esa

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



so‘zlovchining kommunikativ maqsadi asosida eksplitsit va implitsit tarzda namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlar so‘zlashuvchilarning munosabatini ifodalovchi mazmuniy birlik sifatida implitsit strukturani tashkil qiladi” [2:180-186]. *Dadam va ayamlar bilan* uyushiq bo‘lakli birikmasida subyektning faqat sanalganlardan tashqari boshqa shaxslarni ham nazarda tutayotganligi ham sezilib turibdi: aka, uka, opa, amma, xola, amaki, tog‘a va boshqa. Sanab o‘tilganlarga nisbatan qo‘llanilayotgan *kakligi sayramasmish* barqaror birikmasi ijodkorning mana shu nutqiy vaziyat va maqsad uchun yaratganligini sezish qiyin emas. Zero, matn presuppozitsiyasida ham U[Suyunboy]ning o‘ta kommunikativ ehtiyotkorligi, ijtimoiy va manaviy jihatdan alohida xarakterga egaligi sezilib turibdi. Matnda baho kategoriyasining lingvistik reallashuvi aynan bo‘y ko‘rsatadigan o‘rinlariga qadar ham o‘quvchi intellektida implitsit tarzda asar personajlari haqida axborotlar tahlili jarayoni harakatda bo‘ladi. Natijada bu axborotlar matndagi nutqiy vaziyatlarda o‘quvchining badiiy hukmlash yoki xulosalashida asos vazifasini bajaradi. Personaj[Suyunboy]ning ijtimoiy va ma’naviy portreti haqidagi axborotlar asarning turli o‘rinlarida o‘quvchining “mantiq xotirasi”da jamlanib boradi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta’kidlashicha, nutqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun kommunikanlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo‘lishi, umumiy vaziyat bilan bog‘lik muayyan bilim-xabardorlikka ega bo‘lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi [3:29]. Zero, kommunikanlar, ya’ni ijodkor va o‘quvchining o‘zaro samarali aloqasida matn presuppozitsiyasining pragmatik jihati ustuvor sanalib, bunda matn obyektiga bo‘lgan baho kategoriyasini shakllanishida matndagi ma’lum bir lisoniy birlik yoki shu birlikning matnaro boshqa lisoniy birlik bilan kompleks tarzda pragmatik “hamkorligi” kuzatilishi mumkin. Birinchi jumlada qo‘llangan *faqat* ayiruv-chegaralov yuklamasi ikkinchi matndagi *kakligi sayramasmish* birikmasi bilan lingvistik presuppozitsiyaga xos nutqiy moment voqealangan. Bir-biriga lingvistik ishoralanayotgan birliklar[*faqat* va *kakligi sayramasmish* birliklari]ning mantiqiy tarzda samarali aloqasi natijasida o‘quvchiga tegishli xulosalar chiqarish va matn presuppozitsiyasi natijasida baho kategorisiga xos axborotni tasniflash imkonini beradi. Tilshunos U.Rahimovning fikricha, lingvistik presuppozitsiyaning shakllanishida unga ishora qiluvchi til vositalarining lisoniy-belgi xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, *faqat* ayiruv-chegaralov yuklamasi gapda o‘z qurshovidagi bo‘laklarni ajratib ko‘rsatish bilan birga, ularning ma’nosiga zid xarakterdagi presuppozitsiyani shakllantiradi [5:18]. Natijada, nutqiy aktning semantik va pragmatik imkoniyati kengayadi hamda nutqni tashkil etgan til

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



birliklarining so‘zlovchi niyati aks etgan propositsiyaning to‘liq ifodalanishiga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳақимов М. Ўзбек прагматингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.
2. Ҳақимов М., Бурханова М. Нутқий актлар имплицит структура бирлиги сифатида. – Тошкент: Сўз санъати халқаро журналі, 2021. 4-жилд, 4-сон.
3. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. 6-сон.
4. Қозоқова Н. Бадиий матн пргматикаси [Ғафур Ғулом насрий асарлари мисолида]. Монография – Наманган: Arjuman media, 2022.
5. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, 1994.